

# ZAMONAVIY AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI MASALALARI

*Mardonov Bahodir Mardon o'g'li*

*O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining  
Bojxona institute*

[mardonov.bahodir@inbox.uz](mailto:mardonov.bahodir@inbox.uz)

+998935459097

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashuv sharoitida yosh avlodning ma'naviy olamini buzg'unchi ta'sirlardan asrash uchun ta'lim-tarbiya jarayonida qanday tamoyillarga asoslanish va qanday jihatlarga e'tibor qaratilishi kerakligi hamda zamonaviy axborot vositalari va yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasi masalalari ochib berilgan. Shuningdek maqolada, yoshlarning tafakkur tarbiyasiga ko'proq e'tibor qaratish ular ma'naviy olamining daxlsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslangan

**Kalit so'zlar:** globallashuv, "Ommaviy madaniyat", internet, axborot, axborot madaniyati, ta'lim, tarbiya, axborot vositalari, yoshlar ma'naviy olami, ma'naviy tahdidlar.

Insoniyat tarixining uchinchi ming yillikka qadam qo'yishi jamiyat taraqqiyotida ikki tendensiyani namoyon qilmoqda: birinchisi - inson mohiyatini tashkil qiladigan mezonlar tizimida, uning intellektual salohiyati, axborotlar arsenali, texnik-texnologik imkoniyati g'oyat rivojlanib, yangi ma'naviy qadriyatlar shakllanishi bilan xarakterlanadi; ikkinchisi – inson ongida, amaliy turmush tarzida, uning mohiyatiga yot g'ayriaxloqiy hatti-harakatlar (o'z turiga, jamiyatga, tabiatga nisbatan agressivlik) va ruhiy tushkunlik kayfiyati kuchayib, axloqiy inqirozlarning belgilari ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Bu jarayon XX asrning 90-yillarida yuzaga chiqqan va insoniyat hayotining turli sohalarini tobora kengroq qamrab olayotgan globallashuv ob'ektiv tarixiy jarayoni bilan uzviy bo'lib, uni tushunish o'ziga yarasha juda keng (global) yondashuvni taqozo etmoqda. Globallashuv jarayoni dastlab tasavvur qilinganiday faqat ijobiy emas, balki ko'proq salbiy oqibatlarini, yechilishi katta mas'uliyat va hushyorlikni talab qiladigan juda dolzarb masalalarni oldinga surgani bilan katta jiddiy e'tiborni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev to'g'ri takidlaganidek "Globallashib borayotgan va ma'rifiy sohada turli tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi dunyoda ma'naviy hayotimizdagi o'zgarishlar dinamikasining tadrijiy rivojlanish darajasi, unga xos umumiy qonuniyatlarning amalga oshishi va bu bilan bog'liq o'ziga xos milliy xususiyatlarga alohida ahamiyat qaratishimiz darkor. Shu bilan birga, globallashuv va axborot xurujlari, turli buzg'unchi g'oyalar ta'sirida milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Xudbinlik, ya'ni, faqat o'zini o'ylash, hayotga, mehnatga, oilaga engil qarash, iste'molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo'llar bilan aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirilmoqda. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi tobora ortib bormoqda.



Milliy ma'naviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta'bir joiz bo'lsa, "chaqirilmagan mehmon" bo'lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg'ak bolalarimizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan ham ko'z yuma olmaymiz"[1.224].

Hozirgi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda internetdan foydalanuvchilar soni kun sayin ortib bormoqda. So'nggi yillar mobaynida internet global tarmoqqa aylanib ulgurdi. Buning natijasida dunyoda nafaqat axborotlashgan jamiyat yuzaga keldi, balki jahon hamjamiyatida globallashuv jarayonlari tezlashib ketdi. Har qanday kashfiyot singari, internet ham inson intellektual salohiyatining natijasi hisoblanadi. Biz internet yordamida istalgan ma'lumotlarga juda tez vaqt oralig'ida erishishimiz, masofadan turib ta'lim olishimiz, xorijda yashayotgan qadrdonlarimiz bilan suhbatlashishimiz, elektron adabiyotlardan bahramand bo'lishimiz mumkin. Bir necha yillardan so'ng internetdan foydalanuvchilar soni yanada ko'payadi. Sababi, hozirgi davrning texnologik taraqqiyoti juda tez sur'atlar bilan olg'a bormoqda. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ijobiy ko'rsatkichdir[2.173]. Shunday bo'lsada, bu taraqqiyotning salbiy tomonlari ham kam emas.

Hammaga ma'lumki, hozirda ko'plab xonadonlarda internetga ulangan kompyuterlar mavjud. Mehnat qilgan inson o'zining farovon hayoti uchun barcha sharoitlarni yaratgani yaxshidir. Ammo hali hayotning oqu qorasini yaxshi bilmagan, hayotiy tajribasi kam bo'lgan yoshlarimiz uchun internet ma'naviy tahdidlarning manbasiga aylanib ulgurdi. Internet yoshlarimizning kelgusi kamolotiga zarar etkazuvchi ko'pgina ma'naviy tahdidlarni vujudga keltirdi. Turli tanishuv sahifalari va ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek xalqining madaniyati, ma'naviyati va ma'rifatiga tahdid soladigan behayo va pornografik mazmundagi materiallarning ko'payishi natijasida ayrim yoshlarimiz nazarida oilaning muqaddas dargoh ekanligi unutilmoqda.

"Ommaviy madaniyat" targ'ibotchilari internetning imkoniyatlaridan foydalanib, o'zlarining g'ayriinsoniy maqsadlariga erishmoqda. Muqaddas dinimizni niqob qilib, o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishish yo'lida internetdan foydalanayotgan noqonuniy oqimlar sonining ko'payib borishi natijasida yoshlarimiz bilib-bilmay ularga qo'shib qolmoqda. Bunday ma'naviy tahdidlarni yana ko'plab keltirishimiz mumkin. Biroq hozirgi davrda barcha ziyoli insonlarning asosiy vazifalaridan biri yoshlarimizni internetning salbiy ta'sirlaridan muhofaza qilish hisoblanadi. Buning uchun, eng avvalo, ota-onalar farzand tarbiyasining qanday ahamiyatga ega ekanligini unutmasliklari lozim. Bundan tashqari, yoshlar ta'lim olayotgan o'rta maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta'lim dargohlarining o'qituvchilari nafaqat o'zlarining fanlaridan samarali ta'lim berishlari, balki yoshlarning bo'sh vaqtdan qanday foydalanishlaridan ham doimo xabardor bo'lishlari kerak.

Zero, yoshlarimiz ongida porloq istiqbolga qaratilgan ezgu maqsadlar shakllangan bo'lsa va ularga erishishni ta'minlovchi vazifalar mavjud bo'lsa, bu holatda yoshlarimiz ko'plab ijobiy natijalarga erishadilar. Hech kimga sir emaski, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy va boshqa ko'plab buyuk bobokalonlarimiz yashagan davrlarda faqatgina sham yorug'ligi va sodda ilmiy vositalar yordamida yuksak salohiyatli asarlar yaratilgan.

Biz yashayotgan davrda bo'lsa barchamiz uchun axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining eng so'nggi mahsulotlaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda yoshlarimizning barkamolligi uchun barcha imkoniyatlar eshigi keng ochilgan. Shunday ekan, yoshlarimizning internetdan oqilona va odob bilan foydalanishlari davr talabi hisoblanadi. Axir internetdan bunday foydalana oladigan yoshlarimiz o'z vaqtida mehnat qiladi, muntazam sport bilan shug'ullanadi, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanadi, xorijiy tillarni mukammal o'rganadi, o'z sohasi bo'yicha raqobatbardosh akademik bilimlar va kasbiy



ko'nikmalarga ega bo'ladi. Yoshlarimizning barkamolligi muqaddas Vatanimiz – O'zbekiston Respublikasining kelgusi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun munosib asos hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib dunyoning mafkuraviy manzarasi juda murakkablashib ketdi. Unda kuchli ta'sirga ega bo'lishning eng maqbul yo'li, har qancha mablag' talab etilishidan qat'iy nazar, yirik axborot tarqatuvchi mavqeini egallash ekani ayon bo'lib qoldi. Jahonda "axborot urushi" ketayotganini hatto oddiy odamlar ham payqashi qiyin emas. Masalan, biron bir xorijiy mamlakatning turmush tarzi, qadriyatlar tizimini ulug'lovchi risolalar, kinofilmlar tarqatilmoqda, deylik. Tabiiyki, bunday axborotlar jamiyatda ma'lum ijtimoiy fikr shakllanishiga ta'sir etmay qolmaydi.

Axborotlashuv va globallashuv jarayonlari, taassufki, faqat moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladigan, milliy qiyofasini qariyb yo'qotgan, o'z maqsadi yo'lida har qanday g'oyani qo'llashga tayyor toifalarni ham vujudga keltirdi. Bunday salbiy holat mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarimizga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Ana shu tahdidni bartaraf etish uchun bor imkoniyatni ishga solgan holda izchil kurashmoq zarur. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" asarida yozadiki, "Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyasiz tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin"[3].

Demak, hozirda har bir axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega ekan, ongi va dunyoqarashi endigina shakllanayotgan yosh avlodning ma'naviy olami daxlsizligini asrash ko'pchilikni o'ylantirishi darkor. Internetni cheklab qo'yish yoki axborot olishni taqiqlash bilan muammo hal bo'lmaydi. Hayotni ham ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilish qiyin bo'lgan hozirgi sharoitda internet yoshlar uchun asosiy axborot manbaiga aylanayotir. Ammo, G'arb madaniyatiga taalluqli ba'zi ko'rsatuv va saytlar borki, ular mutlaqo axloqqa ziddir. Bunday axborot yoshlarimiz xulqi va dunyoqarashiga salbiy ta'sir qilishi aniq. Ayni o'rinda yana bir fikrni aytib o'tish joiz. "Oynai jahon" seriallar bilan to'lib-toshgani, bizningcha, ijobiy hol emas. Chunki yoshlar asosiy vaqtini shu seriallarni ko'rishga sarflashi ta'lim sifatiga ta'sir qilmay qolmaydi. Darvoqe, gazeta va jurnallar sahifalarida chop etilayotgan axborot hamda ma'lumotlarning mazmunan sayozligi ham yoshlarimiz tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda ba'zi yoshlar o'zining bilim olish va hayotga munosabatini belgilashda ota-ona va ustoz-murabbiylarni emas, OAV hamda internetni avtoritet sifatida e'tirof etishi, ulardagi axborot va ma'lumotlarni mutlaq chin deb ishonishi tashvishlanarli holdir. Tajribasi ham bo'lmagan yoshlarning hayotiy tushuncha va tasavvurlarini asosan OAV hamda internet shakllantirmoqda. Bu esa ta'lim-tarbiya muassasalarining ish faoliyatini qiyinlashtirib qo'yimoqda. Axborotning katta oqimi sharoitida inson o'zini erkin his eta olishi uchun axborot madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu o'rinda axborot madaniyati deyilganda ta'lim, ilmiy bilish va faoliyatning boshqa turlari davomida yuzaga keladigan axborotga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bilimlar, o'quv va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan yig'indisi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televidenie, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'rganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz"[3].

Bugungi kunda yosh avlodning ma'naviy olamini buzg'unchi ta'sirlardan asrash uchun ta'lim-tarbiya jarayonida qanday tamoyillarga asoslanish va qanday jihatlarga e'tibor qaratish kerak, degan masala



faylasuflar, gumanitar fan olimlarining diqqat markazida turibdi. Fikrimizcha, yoshlarning tafakkur tarbiyasiga ko‘proq e‘tibor qaratish ular ma‘naviy olamining daxlsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarning axborot oqimiga munosabatini shakllantirish aql-idrok, tafakkur tarbiyasining bir yo‘nalishidir. Ota-onalar, ustoz va murabbiylar ta‘lim-tarbiya berish jarayonida yoshlarga fikr va bilim o‘rtasidagi farqni tushuntirishi, fikrlarni o‘zaro taqqoslashga, turlarga ajratishga o‘rganishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, axborot madaniyatini shakllantirish masalasi jamiyat rivoji bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli u mamlakat miqyosida ijtimoiy ahamiyatga molik masaladir. SHu sababli globallashtirish sharoitida axborotlashtirish jarayonining barcha sohaga oid jihatlarni o‘rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi paytda millat va davlatning eng muhim resurslaridan biri insonlarning aqliy salohiyati va bilim darajasi hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyot, avval tasavvur etib kelinganidek, yuqori turmush darajasiga erishgan yoki zamonaviy texnika ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan mamlakatlar emas, balki ta‘lim va tarbiyaning yanada yuqori darajasini ta‘minlashga erishgan mamlakatlar tarix sahnasining old qatorlariga chiqayotganligini ko‘rsatmoqda.

Shu sababdan insonni, avvalo, yoshlarni nafaqat yangi texnologiyaga o‘qitish va ulardan foydalanish qobiliyatini shakllantirish, ayni chog‘da ana shunday texnologiyalarni yaratish va takomillashtirishda ularning keng ishtirokini ta‘minlash ustuvor vazifalardan bo‘lib qolmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlar oldiga yanada chuqur bilim egallashni, katta ko‘lamdagi axborotni to‘la o‘zlashtirishni va undan samarali foydalanishni dolzarb vazifa qilib qo‘yadi.

### **Адабиётлар:**

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B.224.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. I jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 173-bet.
3. Karimov I. Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2015.
4. Muminov A. O‘zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari. – Toshkent: “Turon zamin ziyo” nashriyoti, 2013. – 146 b.
5. Kandov Bahodir Mirzayevich. (2023) Issues of the Influence of Social Networks on the Spirituality of New Independent Youth. // *Miasto Przyszłości*. – Kielce: Polsha. Vol. 40. 2023. – pp. 574-579.

